

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844514>

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK
FAOLIYATI JARAYONIDA DIDAKTIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Saydullayeva Shahlo Sobirovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining didaktik texnologiyalarni dars davomida qo‘llashning bir qancha samarali yo‘llari va ularning qo‘llash jarayonida vujudga keladigan ijobiy va salbiy tomonlari haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, maqola rivojlangan davlatlar ta‘lim tizimida keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan eng so‘nggi zamonaviy didaktik o‘yinlardan ba‘zilarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: zamonaviy ta‘lim, didaktik o‘yinlar, pedagogik mahorat, didaktik texnologiya.

Yurtimizda ta‘lim sohasida olib borilayotgan bir qancha islohotlar o‘quvchilar bilan an‘anaviy ta‘lim sohasidan voz kechgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va didaktik o‘yinlardan foydalangan holda muloqot qilish imkonini bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim konsepsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: “Mutaxassis o‘z faoliyati sohasidan qat‘iy nazar, ijodiy jamolarda ishlay olish qobiliyatiga menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo‘lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo‘jalik, ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak”[4; 1046]. Ushbu jummalarni pedagoglar faoliyati uchun ham bevosita taalluqli deb aytishimiz mumkin. Pedagogik faoliyat

jarayonida o'qituvchilar ko'plab to'siqlarga duch kelishi mumkin. Buning bir qancha sabablari mavjud. Bulardan eng asosiylari o'quvchilarni darsga jalb qila olmaslik, darsning samarasiz olib borilishi yoki mavjud bilimlarni yetkaza olmaslik va hakazo sabablarni keltirish mumkin. Yuqoridagi sabablarni yana bir necha marotabaga orttirishimiz mumkin. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni o'quvchi sifatida emas, balki komil inson sifatida tarbiyalash ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bunday mas'uliyatli vazifani bajarishda chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishi lozim. Dars davomida o'quvchilar oson o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi pedagogik texnologiyalarning, didaktik o'yinlarning usul, shakl va vositalarini to'g'ri tanlab ulardan foydalana olishi muhim hisoblanadi. Didaktik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayoni murakkab va uzluksizdir. U pedagogning faolligiga, ta'lim jarayoning ilmiy, tashkiliy, metodik muhimligiga va ta'lim vositalarining mavjudligiga ham bog'liq hisoblanadi. Bunday vaziyatda pedagogning zimmasiga bir qancha vazifalar yuklanadi. Pedagog o'quvchilarga bilim va tajribasi orqali ta'sir ko'rsata olishi lozim. Pedagogik ta'sir ko'rsatish tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratiladi va bolalarning xulq-atvorini rag'batlantirish, murakkab va qiyin vaziyatlarni ijodiy zavq-shafq, quvonch manbaiga aylantiradi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning bir necha asosiy usullari mavjud. Ular quyidagilardan iborat hisoblanadi.

1. Ishontirish;
2. Talab;
3. Istiqbol;
4. Rag'batlantirish;
5. Jazolash;
6. Jamoatchilik fikri.

1. Ishonch tushunish, kechinma, qabul qilish orqali yuzaga keladi. Ishontirishning bir necha shakllari mavjud hisoblanadi. Ular hikoya qilish, suhbat, bahs, munozara,

ma'ruza, namoyish qilish, dalil keltirishdir. Agarda pedagog o'quvchilarni berayotgan bilim va tajribalariga ishonтира olmasa, dars ta'lim oluvchilar tomonidan qiziqarsiz deb baholanishi mumkin.

2. Talab ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalaniladigan usullardan hisoblanadi. U o'quvchining xulq-atvor va faoliyat normalari va xatti-harakatlarida namayon bo'ladi. Pedagog tomonidan o'quvchilar uchun dars davomida aynan individual talablar mavjud bo'lmasa, dars samarasiz davom etishi mumkin. Chunki, kichik yosh o'quvchilariga bilim va tarbiya berish bilan birga birinchi navbatda tartib-intizom, keying o'rinda esa bilim va o'zlashtirish talab qilinishi lozim.

3. Istiqbol ta'sir ko'rsatishning eng ta'sirchang usullaridan hisoblanadi. Istiqbol orqali biz o'quvchilarning xatti-harakatlari orqali ularning o'z oldilariga qiziqarli, maroqli maqsadlar qo'yish orqali ta'minlaymiz. Bu usul o'quvchilarning eng asosiy va kerakli maqsadlariga intiluvchanlikni shakllantiradi.

4. Rag'batlantirish ta'sir etishning keng tarqalgan an'anviy usullardan biri hisoblanib, uzoq vaqtlardan buyon qo'llanilib kelinadi. Chunki har qanday sohani olmaylik uni rag'batlantirishsiz tasavvur qilish qiyin. Bu usul ta'sir kuchi yuqori va har doim o'z natijasini berib kelgan usuldir. Ayniqsa, boshlan'ich sinf o'quvchilari o'zining ilk bosqichlarini o'tayotgan paytda, ular uchun o'qituvchi tomonidan rag'batlantirish ularning fanga va umuman bilim olishga ishtiyoqini ko'taradi.

5. Jazolash usulidan hattoki bizning ulug' bobokalonlarimiz ham foydalanishgan. Lekin bu usulda foydalanishda biz ehtiyotkorlik bilan yondoshishimiz lozim. Chunki birgina qilgan nojo'ya xatti-harakatimiz va birgina gapirgan no'to'g'ri gapimiz orqali o'quvchida bir umrlik ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

6. Jamoatchilik fikri ta'sir etishning eng qudratli ko'rinishidir. O'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini doimiy va muntazam rag'batlantirib va qo'llab-quvvatlab borishni ta'minlaydi. Bundan tashqari jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ta'minlashda xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarga nafaqat bilim berish, balki ularga dunyoni, butun borliqni, har bir shaxs, predmetni tanitishi lozim. Buning uchun o'qituvchi darsni turli qiziqarli, tabiat, olam bilan bog'langan metodlardan, didaktik texnologiyalardan foydalanishi lozim. O'yin bola hayotining uzviy qismi hisoblanadi. Turli didaktik o'yinlar orqali bolaning aqliy faoliyati bilan bir qatorda jismoniy faoliyati ham rivojlanadi. O'quv jarayonida didaktik o'yinlarning roli, o'rni, o'yinning har bir elementi va ta'lim va didaktik texnologiyaning uyg'unligi o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Pedagog o'ziga tegishli fandan kelib chiqqan holda didaktik o'yinlardan foydalanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bir qancha o'yinlarni saralash jarayonida alohida e'tibor berishi lozim bo'lgan jihatlari mavjud. Masalan, jamoaviy didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilar orasida tortishuvlar olib kelmaydigan, aksincha ularni yanada bir-biriga mehrini, hurmatini oshiradigan, faqat o'yin jarayonida emas, balki sinfdan tashqarida ham ularni munosabatlarining qadrini oshiradigan bo'lishi lozim. Didaktik texnologiyalar o'quvchi faoliyatini shakllantirish va faollashtirishga qaratilgan. Ular orqali biz o'quvchidagi ijodiy imkoniyatlarni rivojlantira olamiz. Ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan o'quvchilarning ta'lim olishga ishtiyoqini oshiradigan, ularning qobiliyat va qiziqishlarini namoyon qiladigan, kasbga bo'lgan moyilligini ko'rsatadigan foydalaniladi. Didaktik o'yinlarning har bir fanga oid ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular orqali fanning o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan qismi yoritiladi, natijada o'quvchi uchun qiyin tuyilgan bilimlar o'yin orqali o'quvchi xotirasida saqlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga shuni ta'kidlab o'tish joiz, didaktik texnologiyalar faqatgina dam olish daqiqalarida yoki mustahkamlash, takrorlash darslarida emas, balki darsning asosiy qismida ham keng foydalanish kerak. Chunki biz o'quvchilar uchun qiyin va murakkab bo'lgan mavzularni turli didaktik texnologiyalar orqali oson va qulay ularga yetqazib bera olamiz. O'qituvchilar didaktik texnikalarga vaqt o'tqazish yoki dam olish daqiqasi sifatida emas, balki ta'limning bir ajralmas qismi sifatida qarashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'yinsiz tom

ma'noda aqliy rivojlanish qiyin hisoblanadi. O'yin o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqni uyg'ota oladigan uchqun hisoblanadi. O'qituvchi didaktik o'yinli darslar uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va bir qancha didaktik ta'lablarga rioya qilishi lozim hisoblanadi. Didaktik o'yin mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalariga qaratilgan bo'lishi, kundalik va jamiyat hayotimizdagi muammolariga qaratilganligi, u o'yin davomida hal qilinishi, yetuk shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi, o'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikka asoslanishi, o'yin davomida taqsimlangan vaqtga qat'iy amal qilinishi lozim. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz joizki, har qanday didaktik o'yin mashg'ulotlarini qo'llay olish yoki qo'llay olmaslik pedagogning tajribasi va bilimiga bog'liq hisoblanadi va dars davomida o'yinlardan to'g'ri va samarali foydalana olish pedagogdan katta kuch va mas'uliyat ta'lab qiladi.

Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqi uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Didaktik o'yinlarning bir qancha komponentlari mavjud. Ular quyidagilar hisoblanadi.

1. O'yin mantiqi
2. O'yinning harakati
3. O'yin qoidasi

O'yinning mantiqi avvalo uning sarlavhasida namoyon bo'ladi. Chunki har qanday o'yinning sarlavhasi o'quvchini o'ziga jalb qilishi, o'quvchida qiziqish uyg'otishi lozim. O'yin harakati esa, o'quvchining o'zida bo'lgan bilimi, jismoniy kuchini, ya'ni chaqqonlik, epchillik, uddaburonlik kabi kabi qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda va o'z maqsadiga erishish uchun ularni qo'llay olishda namoyon bo'ladi. O'yin qoidasi o'yinning eng muhim qismlaridan hisoblanadi. Agar, o'yin jarayonida hech qanday tartib va qoidaga amal qilinmasa, ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishda muhim hisoblanadi. Didaktik o'yinlar

o‘quvchilarda aqliy va ma‘naviy qoniqish hissini uyg‘otadi. O‘yin so‘ngida o‘quvchida o‘ziga ishonchni hosil qiladi va ta‘nasida jismoniy yengillik his qiladi.

“Didaktik o‘yinlar haqida sharq mutafakkirlarining fikrlarini ham keltirib o‘tishimiz mumkin. Garchi olimlarning jumllarida "didaktik o‘yin" atamasi aynan kelmasa ham, dars o‘tishning usullari haqida tavsfiyalar keltirilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Munis, Alisher Navoiy kabi olimlarning o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar, ta‘lim jarayoning sifatini oshirish kabi qarashlari ta‘lim taraqqiyotida o‘ziga xos bosqichni tashkil etadi. Alisher Navoiy bobomizning “Hayrat ul-abror” asarining bir necha boblari ta‘lim-tarbiya va odob-axloq masalalariga bag‘ishlangan. Navoiy bolalarni ilmni puxta egallashga chaqirib, buyuk pedagog hamda murabbiy sifatida ularni tarbiyalash va o‘stirish yo‘llarini ko‘rsatadi”[5; 302].

Pedagoglar uchun eng zamonaviy va qiziqarli bir nechta didaktik o‘yinlarni keltirib o‘tamiz.

1. ”So‘zni top” o‘yini

Bu didaktik o‘yin dars jarayonida aynan o‘zim va boshqa pedagoglar tomonidan qo‘llanilgan va ijobiy natijalarga erishilgan. Bu o‘yinni ona tili darslarida foydalansak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nima uchun aynan bu o‘yinni tavsfiya qilishimdan maqsad shuki, bu o‘yin orqali bolalarni darsga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirib, ularning lug‘at boyligini o‘stirish hisoblanadi. Bizga oddiy oq qog‘oz yoki bolalarni yanada qiziqishini oshirish uchun rangli qog‘ozlardan foydalanib so‘zlarni qog‘ozga yozib olamiz va yozilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratgan holda qaychi yordamida kesamiz va kesilgan bir nechta so‘zlarni aralashtirgan holda kanvertga joylab guruhlarga uzatamiz. Mavzu yuzasidan 15-20 ta so‘zlarni xohishimizga ko‘ra tayyorlaymiz va 10 daqiqa vaqt beramiz. Bu o‘yinni asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ya‘ni 1-4 sinflar bilan tashkallashtirilsa, maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘yin darsning yangi mavzu o‘quvchilarga tushuntirilgandan keyin tashkallashtirilsa, yanada samarali bo‘ladi, chunki yangi mavzu o‘yin orqali o‘quvchilarda mustahkamlanadi va xotirasida yahshi

saqlanadi. O'quvchilarga dars jarayonida qo'llashdan avval biz qaysi mavzu uchun bu o'yindan foydalanishimizni aniqlab olamiz. Agar biz sifat so'z turkumi o'rgatiladigan darsda o'yindan foydalansak, sifat so'z turkumiga oid so'zlarni tayyorlaymiz. Masalan, "qizil", "maqtanchoq", "bilimdon" kabi so'zlardan foydalanishimiz yoki ot so'z turkumi mavzusi doirasida biz "daftar", "qizg'aldoq", "mashg'ulot" kabi so'zlardan foydalanishimiz mumkin. Bu didaktik o'yinning bir qancha ijobiy tomonlari mavjud bo'lib ular quyidagilardan iboratdir:

1. Bolalarning guruh bo'lib ishlash jarayonida ular da ephillik va chaqqonlik rivojlanadi

2. Guruh bo'lib ishlay olish qobiliyati shakllanadi

3. Hali o'zalashtirmagan yoki nutqida qo'llamaydigan so'zlarni hosil qiladi va bu orqali hosil bo'lgan so'zni o'yin jarayonida xotirasida saqlab qoladi

4. Guruh a'zolari bilan birgalikda, hamjihatlikda so'zlarni hosil qilish orqali ular o'rtasida o'zaro hurmat va bir-biriga ishonch tuyg'ulari shakllanadi.

2. "So'z zanjiri" o'yini

Bu o'yin o'quvchilarning eng qiziqarli o'yinlardan biri deb bimalol aytishimiz mumkin. Bu o'yinni boshlang'ich sinf o'quvchilari, bundan tashqari yuqori sinf o'quvchilari uchun ham bimalol foydalanishimiz mumkin. Chunki bu o'yin har qanday yoshdagi o'quvchilarni zeriktirib qo'ymaydi. O'yindan darsning istalgan qismida, asosan dam olish daqiqalarida yoki mavzuni mustahkamlash darslarida foydalanishimiz mumkin. O'yinning sharti shundan iboratki, bir o'quvchi o'zi istagan so'zni yozadi, ikkinchi o'quvchi esa birinchi o'quvchi yozgan so'zning oxirgi bo'g'inidan boshlanadigan so'z hosil qiladi. Buning uchun avvalo sinf o'quvchilarini ikki guruhga ajratib olamiz va har bir guruhdan bir nafardan o'quvchilarni doskaga taklif qilamiz. O'quvchilarni qiziqtirish maqsadida har bir yutgan o'quvchi uchun bir ball dan beriladi va o'yin yakunida ballar hisoblanib eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib hisoblanadi. O'quvchilarni qiziqtirish maqsadida, g'olib bo'lgan guruhga o'qituvchi tomonidan rag'batlantirishlar taqdim etilishi mumkin. Doskamizni ikki

qismga ajratib, o'yinni boshlashimiz mumkin. Boshqa guruh yozgan so'zning oxirgi bo'g'inidan yangi so'z hosil qila olmagan o'quvchining guruhiga nol ball beriladi, ikkinchi guruhga esa bir ball beriladi va doskadagi juftliklar o'rnini boshqasi egallaydi. O'yinimiz shu tarzda guruh o'quvchilar soni yakunlanguncha davom etishi mumkin. Misol tariqasida bir o'quvchi "daftar" so'zi bilan boshlasa, ikkinchi o'quvchi "tarvuz" yoki "tarqoq", "tarsaki", kabi so'zlardan xayoliga kelgan birini yozish bilan o'yinni davom ettirishi mumkin. Bu o'yinning o'ziga xos bir qancha o'quvchilar uchun ijobiy tomonlari mavjud bo'lib ular quyidagilar hisoblanadi:

1. O'quvchi ongi rivojlanib, fikrlash doirasi kengayadi
2. O'quvchida chaqqonlik va epchillik faoliyati shakllandi
3. O'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi
4. O'quvchilarning so'z boyligi oshadi, natijada nafaol so'zlar faol qo'llaniladigan so'zlarga aylanadi
5. O'yin jarayonida o'quvchilarda raqobatbardoshlik shakllanadi.
6. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik texnologiyalarni zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llash va bu orqali ta'lim sifatini yanada kengaytirish lozim. Shu bilan bir qatorda, didaktik o'yinlardan erkin va o'z o'rnida foydalana oladigan o'qituvchi-mutaxassislar sonini ko'paytirish darkor. Didaktik texnologiyalarni har bir dars va har bir o'quvchi uchun mos ravishda tanlay olishimiz muhimdir. Darsning samaradorligini va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida o'qituvchi bir qancha zamonaviy didaktik o'yinlarga ega bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. T.G'afforova.- T.: Tafakkur, 2011.-160 b.
2. H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.Amadyarova, E.U.Eshchonov. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2009*
3. M. Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasulova F.Abduqudusova. *Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedago- gik va axborot texnologiyalarni qo'llash. Toshkent- 2014*
4. Zamira Abduxoshimova Sindarova. *Boshlang'ich sinf o'qituvchisining darsda innovatsion pedagogik texnologiyasidan foydalanishning mazmuni. // Academic Research in Educational Sciences 2021, 1046-b*
5. Saydulleva Sh. *Didaktik texnologiyalarni qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy mahoratini oshirish. // "Научный фокус" 2003, 8-son 465 b*
6. G'afforova T, Nurullayeva Sh. *Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o'yinlar. Qarshi: Nasaf, 2003.*